



INSON HAYOTIDA ESHITISHNING AHAMIYATI VA KARLIKNING TURLARI HAQIDA TUSHUNCHA

Soliyev Ilhomjon Sobirovich¹

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD),

Akbarova Muxlisa Ahmadali qizi²

Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim
fakulteti talabasi.

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p1-05>

ARTICLE INFO

Received: 23th January 2023

Accepted: 03rd February 2023

Online: 04th February 2023

KEY WORDS

*Eshitishning toifalari, total
karlar, zaif eshituvchilar, daktil,
imo-ishora, labdan o'qish, nutqi
yo'q karlar, nutqi saqlanib
qolgan karlar, quloqdagi
kasalliklar.*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada eshitishning turlari va bolalardagi
hamda kattalardagi karlikka olib keluvchi sabablar va
kasalliklar haqida so'z boradi.*

Bolalarda eshitish qobiliyatining pastligi tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi. Eshitishda nuqsoni bor bolalar bilan surdopedagog shug'ullanadi. O'zbekistonda surdopedagogika yo'nalishi 1983-yilda TDPI da tashkil etilgan. Bolalarning eshitishi nuqsonli bo'lib tug'ilishiga sabablar ona qornidagi dastlabki 3 oylik davrlarda onaning turli infeksiyon (gripp, qizamiq, suvchechak, ich terlama, ko'k'yo'tal) kasalliklarga chalinishi va onaning kuchli taksikozlari sabab bo'lishi mumkin. Ona bu kabi kasalliklar bilan og'riganda u **gentamitsin** dorisini qabul qilsa, shu dori homilaga ta'sir qilib bolani karlikka olib kelishi mumkin.

Insonlarda eshitishdagi nuqsonlar 3 toifaga bo'linadi:

1. Total karlar tug'ma kar bo'lib tug'iladi. Ularning eshitish imkoniyati nol darajaga teng bo'ladi. Tug'ma kar bo'lib tug'ilgan bolalarni davolash mushkul bo'ladi. Ularga operatsiya usuli bilan maxsus eshitish moslamalari o'rnatiladi, lekin ko'pincha bu usul samarasiz chiqadi.
2. Karlar-bu turdagi karlik tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi. Eshitish ko'rsatgichiga qarab og'ir yoki yengil darajaga ajratiladi.
3. Zaif eshituvchilar- bu turdagi bolalar o'ziga yaqin masofada turgan insonni so'zlarini eshitishi mumkin. Uzoq masofadagi so'zlarni eshitolmaydi. Bumday bolalarga maxsus eshitish apparatlari tavsiya etiladi.

Eshitishda nuqsoni bor bolalarga ta'lim-tarbiya maxsus usulda o'rgatiladi. Ularning so'zlashish usullari 3xil bo'ladi:

- 1) imo-ishora
- 2) daktil
- 3) labdan o'qish

Kar bolalarning o'zi ham 2 guruhga bo'linadi

A. Nutqi yo'q karlar



B.nutqi saqlangan karlar

Nutqi yo'q karlar (kar- soqov bolalar)

Soqovlik tug'ma yoki bolaning erta rivojlanish davrida yuzaga kelgan karlik tufayli yuzaga keladi. Bunday bolalarda nutq apparatining periferik yoki markaziy qismida kar-soqovlarda hech qanday organik o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

Nutqi saqlanib qolgan karlar

Maktab yoki bog'cha yoshida kar bo'lib qolgan bolalar nutqi ustida maxsus ish olib borilsa, bolaning nutqini saqlab qolish mumkin. Agar bunday ish olib borilmasa, bolaning bor nutqi yo'qoladi. Bolalarni karlikka olib keladigan asosiy sabablardan biri bu serebrospinal meningit bilan kasallanishi ham bo'lishi mumkin. Orttilirilgan karlikda eshitish qobiliyati qisman saqlanib qolishi ham mumkin. Bola nutqini rivojlantirish ustida ish olib borilmasa 4-5 yoshida eshitish qobiliyatini yo'qotgan bolalar maktab yoshiga yetganda gapirmaydilar.

Eshitishning yo'qolishi 50 dB dan oshmasa, to'g'ri ovoz bilan gapirganda so'zlar bir metr masofadan aniq eshitiladi, ya'ni bola bilan gaplashish mumkin.

Eshitish yo'qolishi 50 dB dan 70dB gacha bo'lganda to'g'ri ovoz bilan gapirilgan so'zlar bir metr masofaga yetmagan holda eshitiladi, ya'ni o'sha inson bilan gaplashish qiyinlashadi.

Zaif eshituvchanlik bolalarning nafaqat nutqiga, balki psixikasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu ta'sir darajasi individual bo'lib, bola nerv sistemasiga va tashqi ijtimoiy muhitga ham bog'liq bo'ladi. Zaif eshitish bolalarning nutqiga salbiy ta'sir etib, ularning asab sistemasini ma'lum darajada buzishi mumkin. Bolalarda eshitish qobiliyatining yo'qolishi natijasida ular nutqining to'la-to'kis bo'lmasligi ba'zi harflarni to'la-to'kis ifodalay olmaslik (sh, s, z, d, f kabi) so'z jumalarning oxirgi harflarni noto'g'ri talaffuz qilish holatlari uchraydi. Natijada bolada asta-sekin **agramatizm** holati kuzatiladi.

Eshitishni tekshirish usullarini 4 guruhga bo'lish mumkin.

- 1) Eshitishni jonli nutq yordamida tekshirish
- 2) Komerton yordamida tekshirish usullari
- 3) Elektroakustik usullar yordamida
- 4) Eshitishni tovushga nisbatan shartli va shartsiz reflekslarning namoyon bo'lishiga qarab tekshirish

Eshitishning pasayishiga quloqdagi ko'plab kasalliklar ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan: atreziya, otgematoma, perixondrit, tashqi eshituv yo'lining oltingugurt tiqini, otomikoz, ekzema, yosh bolalardagi o'tkir otit kabi kasalliklar sabab bo'lishi mumkin. Bulardan tashqari quloqda yiringsiz kasalliklar ham bor ular: koxlear nevrin, otoskleroz va menyer kasalliklari hisoblanadi. Bu kasalliklarni keltirib chiqarmaslik uchun inson doimo gigiyena qoidalariga va sog'lom turmush tarziga rioya qilishi zarur.

References:

1. Maxsus pedagogikaning klinik asoslari
2. Logopediya M. Ayupova
3. M.R. Po'latxo'jayeva Defektologiya klinik asoslari O'quv qo'llanma
4. Q. Sodiqova, S.X. Aripova, G.A. Shaxmurova Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi



5. Soliyev I. S., qizi Ergasheva D. S. BOSHLAG 'ICH TA'LIM FANLARINI O 'QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ME'ROSIDAN UNUMLI FOYDALANISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 16-20.
6. Ergasheva D. BARKAMOL AVLODNI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA BOSHLAG 'ICH TA'LIMNING O 'RNI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 139-141.
7. Ergasheva D. BOSHLAG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARIDA TO 'G 'RI O 'QISH KO 'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – C. 1675-1678.
8. Sobirjonovich S. I. EASTERN THINKERS' VIEWS ON EVERYWHERE EDUCATION OF CHILDREN //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 309-314.